

**DAVLAT FUNKSIYASI TUSHUNCHASI VA UNI TASNIFLASHDA
FRENSIS FUKUYAMA YONDASHUVINING AHAMIYATI**

Nuraliyev Tolibjon Ne'mat o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Davlat boshqaruvi huquqi magistranti

Annotatsiya. Davlat funksiyalarini tasniflash orqali uning faoliyat yo'nalishi, davlatning maqsad va vazifalari qay sohaga yo'nalganligini aniqlashimiz mumkin. Davlat funksiyalarini tasniflash masalasida aniq bir mezonlar shu kungacha ishlab chiqilmagan. Bu davlatning tadrijiy rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, taraqqiyotning u yoki bu bosqichida davlatning funksiyalariga e'tibor ortib ayrim funksiyalariga esa kamayib boradi. Bugungi kunda globallashuv natijasida davlat funksiyalariga ham yangicha qarashlar bilan yondashish zarurati paydo bo'lmoqda. Professor Frensis Fukuyama qarashlari orqali bugungi kunda davlat funksiyalarini tasniflashda zamonaviy yondashuvlarga asoslanish tendensiyalarini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Kalit so'zlar. Davlat qurilishi, globallashuv, integratsiyalashuv, ekologik inqiroz, ijtimoiy funksiyalar, diplomatik jozibadorlik, axborot asri, jamiyat, shaxs, minimal funksiyalar, faol funksiyalar, o'rtacha funksiyalar.

Аннотация. Классифицируя функции государства, мы можем определить направление его деятельности, на какую сферу направлены цели и задачи государства. Конкретные критерии в вопросе классификации функций государства до сих пор не разработаны. Это связано с историческим развитием государства, когда на той или иной стадии развития внимание к функциям государства возрастает, а к отдельным функциям-уменьшается. Сегодня в результате глобализации возникает необходимость подойти и к функциям государства с новыми взглядами. Благодаря видению профессора Фрэнсиса Фукуямы мы сможем проанализировать тенденции, лежащие в

основе современных подходов к классификации государственных функций сегодня.

Ключевые слова. Государственное строительство, глобализация, интеграция, экологический кризис, социальные функции, дипломатическая привлекательность, информационный век, общество, личность, минимальные функции, активные функции, средние функции.

Annotation. By classifying the functions of the state, we can determine the direction of its activity, what area the goals and objectives of the state are oriented. When it comes to classifying state functions, no specific criteria have been developed to this day. This is due to the evolutionary development of the state, and at one stage or another of the development, attention to the functions of the state increases, while it decreases to certain functions. Today, as a result of globalization, there is also a need to approach state functions with new perspectives. Through the views of Professor Francis Fukuyama, today we will have the opportunity to analyze trends in building on modern approaches to the classification of state functions.

Keywords. Nation-building, globalization, integration, environmental crisis, social functions, diplomatic appeal, Information Age, society, identity, minimal functions, active functions, intermediate functions.

Kirish

Davlat funksiyasi bu davlatning rivojlantirishning asosiy faoliyat yo'nalishlari bo'lib, davlatning jamiyatni boshqarishdagigi faoliyatlarining bosh yo'nalishlari qamrab olishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar va jarayonlarga davlat ta'sirining maxsus mexanizmi hisoblanadi. Davlat funksiyalari davlatning xususiyatlari, uning turi va shakllari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan faoliyat hisoblanadi.

Davlat funksiyalari sifatida davlat o'ziga yuklatilgan vazifalarni hal qilishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradi. Sababi davlat fuqarolarning huquq va

erkinliklarini ta'minlash va davlatning manfaatlarini amalga oshirish yuzasidan bir qator faoliyatlarni ishlab chiqadi. Davlat funksiyasi sifatida uni oldida turgan u yoki bu tarixiy bosqichda bajarilishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi. Bunga misol tariqasida mamlakatimizning agrar davlatdan indistruual davlatga o'tish bosqichida olib borilayotgan faoliyatini yoki, huquqiy davlatni shakllantirish yuzasidan amalga oshirayotgan harakatlarini, huquqiy tartibotni ta'minlash yuzasidan amalga oshirayotgan faoliyatlarini davlat funksiyalari sifatida keltirishimiz mumkin. Yanada soddaroq qilib aytadigan bo'lsak, davlat funksiyalariga davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlarni, jamiyat munosabatlarini huquqiy tartibga solish yuzasidan olib borayotgan ishlarni davlat funksiyalariga kiritishimiz mumkin.

Har bir davlatning xususiyatidan kelib chiquvchi faoliyat olib borayotgan funksiyalarda jamiyatning mavjudligining tabiiy shart-sharoitlarini qo'llab-quvvatlashga doir barcha yo'nalishlari kiradi. Davlat funksiyalari nima ekanligi, qanday munosabatlar jarayonida namoyon bo'lishini, davlat funksiyalarini davlat vazifalaridan farqlari yoki ularning umumiyligini davlat funksiyalarining xususiyatlari orqali tushunib olishimiz mumkin. Chunki aynan xususiyat muayyan narsalarning o'zaro ta'siri va munosabatlari jarayonida o'zini namoyon etadi. Xususiyat barcha narsalarga tegishli bo'lib, o'ziga xos va umumiy, asosiy hamda asosiy bo'lmagan, zaruriy va tasodifiy, tabiiy va sun'iy va shu kabi xossalarga ajratiladi. Shu o'rinda davlat funksiyalarining xususiyatlari orqali biz davlat funksiyalarini davlat vazifalaridan ajratib olishimiz mumkin. Bu holatda shuni qayd etishimiz mumkinki, funksiya va vazifalar tushunchasi bir-biridan ajralmas bo'lib, davlatning vazifalarga mos kelishi davlat funksiyasi kategoriyasining asosiy belgisini tashkil etishi bejiz emas. Davlat funksiyasining xususiyatlari va yuridik tabiatiga qaraydigan bo'lsak funksiyalarni vazifalardan qanday farqlashni tushunishimiz, ya'ni vazifalar bu muayyan sohada mavjud bo'lgan muammoni yechilishini talab qilayotgan masala bo'lsa, funksiya esa aynan shunday yechimga yo'naltirilgan faoliyat hisoblanadi.

Davlat funksiyalarini xususiyatlari orqali funksiyalarni boshqa ijtimoiy kategoriyalardan ajratib olishni yuqorida aytib o'tganimizdek, davlat funksiyalari ajratib turuvchi asosiy yo'nalishlardan iborat. Ular quyidagilarni tashkil qiladi:

Mazmuni- davlat faoliyati bir xil jihatlarining yig'indisi;

Miqyosi- funksiyalar davlatni bir butun sifatida qamrab oladi;

Xususiyat- kopleks, majmuaviy;

Maqsadi- insonni ijtimoiy himoyalanganligini va tashqi xavfsizligi kabi belgilar davlatning boshqa vazifalaridan ajralib turadi¹.

Lyudmila Aleksandrovna Morozova "Теория государства и права" darsligida davlat funksiyalari xususiyatlari quyidagilardan iboratligini ta'kidlagan²:

Davlat va jamiyat hayotining eng muhim sohalaridagi barqaror ijtimoiy faoliyati;

Davlatning mohiyati va uning ijtimoiyligi o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni davlat faoliyatida amalga oshirilishini ta'minlash;

Davlat faoliyatining asosiy vazifalarini amalga oshirishga qaratilganligi va har bir tarixiy bosqichda yuzaga keladigan maqsadlarga erishish;

Davlat funksiyalarini amalga oshirishning maxsus shakllari(huquqiy va tashkiliy) o'ziga xos boshqaruv usullaridan foydalanish natijasida yuzaga kelgan davlatning majburlashi kabi faoliyatlarni davlat funksiyalarining asosiy belgilari deb hisoblashimiz mumkin.

Demak ushbu fikrlardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, davlat funksiyalarining xususiyatlari deganda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan har qandan faoliyatni tushunishimiz mumkin, ya'ni davlat tomonidan fuqarolarini huquq va erkinliklarini ta'minlash, jamiyatni rivojlantirishga qaratilgan qonun va qarorlar qabul qilish, tashqi siyosatda davlatning o'z o'rni va ta'sirini kuchaytirish, xalqaro doirada davlatlar bilan tashqi munosabatlarni mustahkamlash, rivojlangan

¹ В.Я. Любашиц, А.Ю. Мордовцев, А.Ю. Мамычев. Х_ «Теория государства и права» . — М.: РИОР, 2014. . — 154 с.

² Теория государства и права : учебное пособие / О.А. Колоткина, А.С. Морозова, И.Д. Ягофарова. — Москва : ИНФРА-М, 2021. — 214 с.

fuqaroviy-huquqiy davlat tashkil qilish kabi ishlarni amalga oshirishga qaratilgan davlatning yaxlit siyosatini ko'rsatadi. Ushbu faoliyatlarning barchasi davlatning muayyan bir maqsadga erishishga qaratilgan faoliyatlari yig'indisi hisoblanadi.

Shuningdek davlat funksiyalarining xususiyatlari haqida nazariy adabiyotlarda turli-xil ta'riflar bildirgan. Jumaladan davlat funksiyalarining quyidagi xususiyatlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

davlat funksiyalarida mamlakat ichki va xalqaro maydondagi amaliy faoliyati namoyon bo'ladi;

davlat funksiyalari uning tarixiy taraqqiyotidagi maqsad va vazifalariga mos ravishda yuzaga keladi va rivojlanib boradi;

davlat funksiyalarida jamiyat hayotida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalardagi o'zgarishlar va islohotlar aks etadi³.

Demak ushbu jumalardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, davlat funksiyalarida davlatning ichki va tashqi siyosati, xalqaro maydondagi obro'-e'tibori, dunyoda tinchlik-osoyishtalikni ta'minlash, turli millat va elatlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashdagi faoliyatlarda namoyon bo'ladi. Davlat funksiyalarining rivojlanib borishi natijasida jamiyatda adolatli boshqaruvning vujudga kelishi, shubhasiz, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarini takomillashtirish imkoniyatini yaratadi. Ular makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlash, tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, uning raqobatbardoshligini oshirish, ayniqsa, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishning yangi innovatsion texnologiyalarining tatbiq etish imkoniyatlarini yaratadi. Ya'ni rivojlanishning ichki qonuniyatlariga ko'ra, yangi bosqichga ko'tarilish murakkab, ammo takomillashgan shakllari paydo bo'ladi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik

³ Сайдуллаев Ш. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. Дарслик. –Тошкент: ТДЮУ, 2018. 220 – б.

biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni amalga oshiradi. Natijada mavjud salohiyatdan samarali foydalanish orqali joylarda mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish o'sish sur'atlari vujudga keladi. Ushbu ijtimoiy-iqtisodiy o'sish davlat funksiyalarining yuridik tabiatida namoyon bo'ladi. Ya'ni turli-xil taraqqiyot bosqichlarida davlatning maqsad va vazifalarida mos ravishda uning funksiyalari rivojlanib borishida o'z aksini ko'rsatadi. Davlat paydo bo'lganidan buyon uning rivojlanishida ko'p davrlar o'tgan. Shunday ekan, jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida davlat funksiyalarining mazmuni va tizimi ham o'zgarib boravergan. Masalan, ilk bor davlat kelib chiqqan paytdagi funksiyalardan ularning tizimi o'z mazmuni va hajmi jihatdan ancha farq qiladi. Bu holat birinchi navbatda jamiyat rivojlanishining mazkur bosqichdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy muammolari va vazifalari bilan bog'liq. Ushbu nuqtai nazardan qaraganda, davlatning hozirgi davrda tan olinayotgan tabiat boyliklari va atrof-muhitni muhofaza qilish funksiyasi quldorlik davlatida bo'lmaganligini ko'ramiz, chunki bunga hali ehtiyoj ham bo'lmagan. U paytda insonning hayot kechirishi uchun tabiiy shart-sharoitlar yetarli va zararsiz bo'lgan. Davlatning umumiy, kelajakka mo'ljallangan siyosati va maqsadidan uning muayyan vazifalari kelib chiqadi. Davlatning vazifalari, uning funksiyalaridan farq qilib, hali bajarilmagan reja, ado etilishi lozim bo'lgan topshiriq, ko'rsatma, navbatdagi ishlar, tadbirlar hisoblanadi⁴.

Davlatning jamiyat va shaxs hayotiga aralashuvi darajasi uning funksiyalari chegarasini, mazmunini va qolaversa, ularning butun mohiyatini belgilaydi. Agarda bu aralashuv jamiyat va insonning mazkur bosqichdagi talablari darajasida bo'lsa, demak davlat ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatdir. Agar davlat bu ishlarga ortiqcha aralashsa, iqtisodiy va ijtimoiy erkinlikni chegaralab qo'ysa, hayotda salbiy rol o'ynaydi va totalitarizm sari qadam qo'ygan bo'ladi. Shuning bilan birgalikda jamiyat hayotining ayrim sohalaridagi vazifalar faqat davlat faoliyati orqaligana hal etiladi. Misol uchun mamlakatni mudofaa qilish, huquqiy

⁴ Черногловкин Н.В. Теория функций социалистического государства. М., 1970. –65 с

tartibotni o'rnatish va qo'riqlash, shu jumladan jinoyatchilikka qarshi kurash kabilar. Davlat faoliyatining eng muhim sohalarga bo'linishi, yuqorida aytganimizdek, uning funksiyalarini keltirib chiqaradi.

Funksiyalar davlat faoliyatining shunchaki to'plami emas. Ular davlat faoliyatining muhim, asosan yirik sohalardagi yo'nalishlaridan iborat. Masalan, iqtisodiyot, ijtimoiy hayot yoki mamlakat mudofaa sohaslarida davlat olib borayotgan ishlarni alohida-alohida asosiy funksiyalar sifatida ko'rsatish mumkin.

Shunday qilib, davlat funksiyalari uning siyosati, maqsadi, vazifalari va vakolatlari bilan belgilanadigan ma'lum bosqichdagi, ya'ni muayyan davrdagi faoliyatning asosiy yo'nalishlaridir. Mazkur asosiy funksiyalar tarkibiga nisbatan kichikroq yo'nalishlar ham bo'lishi tabiiydir. Masalan, davlatning hozirgi zamondagi madaniy-tarbiyaviy funksiyasi tarkibida insonlarni ma'naviyat yutuqlari asosida tarbiyalash bitta kichik yo'nalish bo'lsa, fan va texnikani taraqqiy ettirish - ikkinchi, oliy, o'rta maxsus va umumta'lim tizimini rivojlantirish - uchinchi yo'nalishdir.

Ma'lumki, har bir funksiya qator qismlardan tarkib topadi. Buni aniqroq tushunish uchun quyida mudofaa funksiyasini misol qilishimiz mumkin. Mazkur funksiya tarkibiga davlatning tashqi chegaralarini aniq belgilash va uni qo'riqlash chora-tadbirlarini ko'rish, qurolli kuchlarni shakllantirish va tarbiyalash, ularni qurol-aslaha, oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ta'minlab turish, zarur bo'lganda mamlakatni harbiy kuch bilan himoya qilish, davlat xavfsizligi haqida g'amxo'rlik qilish, mudofaa sohasidagi ishlarga rahbarlik qilish bo'yicha davlat organlarini tashkil etish, harbiy-mudofaa haqidagi qonunlarni yaratish hamda takomillashtirish kabilar kiradi.

Davlat o'z funksiyalarini ado etish uchun qonun chiqarish, ijro etish va sudlov faoliyatini olib boradi. Davlat o'z funksiyalarini amalga oshirishda ishontirish, rag'batlantirish va majbur etish usullaridan foydalanadi. Mazkur shakllar va usullarning qo'llanish darajasi davlat funksiyalarining hajmi, davri, tizimi, xarakterli xususiyatlari bilan bog'liq.

Davlat funksiyalarining mohiyati, mazmuni, ayrim bosqichlardagi xususiyatlari ularni tasniflashga sabab bo'ladi. Davlatning faoliyati obyektiv bo'lgani holda uning funksiyalarini tasniflash subyektiv xususiyatga ega. Chunki funksiyalarni tasniflash olimlar tomonidan fanda, nazariyada amalga oshiriladi. Shuning uchun ham hatto bir davrdagi funksiyalar tasnifi har xil ifodalanadi. Funksiyalarni tasniflash davlatning mohiyatini chuqurroq anglashga, uning jamiyat taraqqiyotidagi rolini yaqqolroq namoyish etishga yordamlashadi. Bunday holatlarda davlat faoliyatining ma'lum bosqichidagi bosh yo'nalishlari (misol uchun iqtisodiy, ijtimoiy, tashqi va boshqa sohalar) asos qilib olinadi. Ilgari, mamlakatimizda davlat funksiyalarini marksizmning davlat tarixiy tiplari to'g'risidagi ta'limotiga binoan tasniflash prinsipi hukmron edi. Quldorlik va feodalizm tuzumida aholining bir qismi deyarli huquqsiz yoki chegaralangan doirada huquqli bo'lgan. Bu hol davlat funksiyalarida o'z ifodasini topganligi tabiiy holdir. Insoniyat bosib o'tgan asosiy davrlar davlat funksiyalarini tasniflash ularning muayyan mazmun va tizimini chuqurroq anglashga imkon beradi.

S.A.Komarov davlat funksiyalarini nafaqat uning faoliyat yo'nalishlari, balki jamiyatdagi jarayonlarga ta'sir ko'rsatish mexanizmi sifatida talqin qilishni taklif etadi. U davlat jamiyat hayotining u yoki bu sohalarida ma'lum funksiyalarni bajara borib, bir vaqtning o'zida, o'tkazilayotgan islohotlar, turli o'zgarishlar, ijtimoiy aloqalarni huquqiy tartibga solish vositasida jamiyatdagi jarayonlarning holatiga ta'sir ko'rsatishga ishora qiladi⁵.

Bundan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, davlat jamiyatdagi jarayonlar rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish mexanizmini davlat funksiyalari tushunchasiga kiritish to'g'ri hisoblanmaydi, chunki bunda davlat funksiyalari umuman uning mexanizmi faoliyatiga yaqinlashtirish hamda davlat faoliyatini turli-xil huquqiy ta'sir vositalari bilan almashtirishga urinish ko'zga tashlanadi, jumladan fanda davlat funksiyalarini amalga oshirishning huquqiy shakllari deb nom olgan mustaqil tushuncha mavjud. Davlat funksiyalari bosh belgilari, ularning

⁵ С.А.Комаров. «Теория государства и права» учебно – методическое пособие Краткий учебник для вузов. Издательская группа НОРМА–ИНФРА.М. Москва, 1999. –315 с

davlat mohiyati va ijtimoiy vazifalari bilan bevosita bog'liqligi, ma'lum tarixiy bosqichlarda turlicha bo'ladigan, davlatning oyoqqa turish, mustahkamlanish va rivojlanish jarayonida o'zgarib boradigan vazifalarni davlat maqsadlarida hal qilishga yo'naltirilganidan iborat bo'lishi umumiy qabul qilingan.

Davlatning har bir funksiyasi siyosiy – predmet ta'rifiga ega bo'ladi. Chunki uning mazmuni, faoliyat predmeti nimadan iborat ekani, u yoki bu maqsadlarga erishish yo'lida qanday vositalar qo'llanishini ko'rsatadi. Bunga misol tariqasida ekologik muvozanatni saqlash zarurati; alohida mamlakatlarning manfaatlari doirasiga sig'maydigan muammolarni hal qilishda xalqaro madaniy va ilmiy-texnik hamkorlik (koinotni o'zlashtirish, jahon okeani resurslarini o'rganish va ulardan foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, xalqaro standartlar va umumjahon radio-kommunikatsiya aloqasini ishlab chiqish, transport vositalarini rivojlantirish va boshqalar).

Jamiyat rivojlanishining kapitalistik va hozirgi demokratik bosqichlarida barcha hozirgi ijtimoiy bazasi tubdan kengayib, aholining hamma guruhlarini o'z ichiga oladi, ya'ni ular sinf emas, balki butun xalq, millat manfaatiga xizmat qiladi. Umuman olganda davlat funksiyalariga faqat sinfiy nuqtai nazardan qarash davlatning jamiyatdagi rolini kamaytiradi va xolisona bayon etishga xalaqit beradi.

Davlatning umumiy ishlar funksiyasi mavjudligi sinfiylikni birinchi o'ringa ko'tarishga imkon bermaydi. Bu funksiyaga mamlakatni mudofaa qilish, huquqiy tartibotni o'rnatish va muhofaza qilish, shu jumladan jinoyatchilikka va huquqbuzarlikka qarshi kurashish, butun millat, xalq manfaatlarini ko'zlab umumiy iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy (g'oyaviy) ishlar olib borishni kiritilishi mumkin.

L.I.Spiridonov mazkur funksiyani yanada keng ma'noda olib, uning umuman insonlarning hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berishga qaratilganligani ta'kidlaydi. Uning fikricha, bu funksiya tarkibiga kishilarning hayoti, soglig'i va normal yashashi uchun zarur bo'lgan tabiiy sharoitlarni ta'minlash; ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlarni

ta'minlash bilan bog'liq davlat faoliyati kiradi⁶.

Huquqshunos olim S.A.Komarov davlatning funksiyalarini nafaqat uning faoliyat yo'nalishlari, balki jamiyatdagi jarayonlarga ta'sir ko'rsatish mexanizmi sifatida ham talqin qilishni taklif etadi. U davlat jamiyat hayotining u yoki bu sohalarida ma'lum funksiyalarni bajara borib, bir vaqtning o'zida o'tkazilayotgan islohotlar, turli o'zgarishlar, ijtimoiy aloqalarni huquqiy tartibga solish vositasida jamiyatdagi jarayonlarning holatiga ta'sir ko'rsatishga ishora qiladi⁷. Bundan kelib chiqadiki, davlatning jamiyatdagi jarayonlar rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish mexanizmini davlatning funksiyalari tushunchasiga kiritish u qadar to'g'ri hisoblanmaydi, sababi bunday holatda davlatning funksiyalarini uning mexanizmi faoliyatiga yaqinlashtirish hamda davlatning faoliyatini turli huquqiy ta'sir vositalari bilan almashtirishga urinish ko'zga tashlanadi.

Davlat funksiyalarini yuridik tabiati bu - davlat funksiyalari davlat vazifalaridan farqli ravishda davlat tomonidan olib borilayotgan muayyan bir maqsadga erishishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi. Davlat funksiyalari muayyan bir amalga oshirish shakllari ega bo'ladi. Bundan tashqari davlat funksiyalari ishontirish va majburlash kabi metodlarga ega bo'ladi. Davlat funksiyalarini muayyan bir guruhlariga tasniflash orqali amalga oshiriladi. Muayyan bir mezonlar asosida tahlil qilinadigan faoliyatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Davlat funksiyalari o'zida jamiyatdagi eng ijtimoiy bo'lgan munosabatlarni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatlarini tashkil qiladi. Davlat funksiyalarini mohiyatidagi faoliyatlarni amalga oshirish tashkiliy va huquqiy tartibda hal qilinadi. Ya'ni davlat funksiyalari xususiyatlari shundan iboratki, unda ko'rsatilgan faoliyatlar normativ-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topadi. Misol uchun ekologik funksiyasini amalga oshirish yuzasidan ekologik qonunbuzilishlarni oldini olish yuzasidan qabul qilingan nomativ-huquqiy hujjatlarini keltirishimiz mumkin. Davlat funksiyalari muayyan tarixiy bosqichda

⁶ Темнов Е.И. Форма государства // Общая теория права и государства. М., «Юрист», 1994. –255 с.

⁷ Комаров С.А., Малько А.В. Теория государства и права. Учебно-методическое пособие./ Краткий учебник для вузов. –М.; НОРМА, 1999. –448 с.

yuzaga keladi va shunga mos ravishda faoliyat olib borish xususiyatiga ega. Yana bir o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, har bir davlat o'z funksiyalarini o'zi belgilashidir. Davlat funksiyalari tashqi va ichkiga bo'linsada ularning faoliyatidan ko'zlangan maqsad bir butunlikni ko'satadi. Ya'ni iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy, mudofaa funksiyalari davlatning umumiy maqsadga erishishga yo'naltirilgan bo'ladi. Yana bir o'ziga xos bo'lgan xususiyati davlat funksiyalari orqali davlat nima ishlarni amalga oshirayotganligini, qanday faoliyatlar uning asosiy yo'nalishlari qilib belgilab olganligini ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunda davlat funksiyalarini klassik usulda tasniflash o'zining ahamiyatini yo'qotmoqda. Misol uchun davlatning ichki va tashqi funksiyalarga bo'lib tasniflashni oladigan bo'lsak ham, bugungi kunda davlatlarning integratsiyalashuvi, tez sur'atda globallashtirish jarayonlari bir davlatda bo'ladigan hodisalarni boshqa davlatga ham ta'sirini kuchaytirmoqda. Shu bilan bir qatorda, Xalqaro tashkilotlar va ittifoqlarning tuzilishi ham bunga ta'sirini ko'rsatmoqda. Shu sababli ham hozirda davlat funksiyalarini qayta tasniflash zarurati yuzaga keldi.

F.Fukuyamaning fikricha ham davlat funksiyalarining tasniflashning aniq ishlab chiqilgan institutsional modellari va uni barcha davlatlar boshqaruviga joriy qilishning universal yechimlari yo'q. Yangi institutsional universal modelni ishlab chiqish uchun mahalliy madaniy me'yorlar, qadriyatlar va jamiyat an'analariga e'tibor qaratishni talab etadi. Bundan tashqari, davlat funksiyalari o'ziga xos bo'lib, keng qamrovli umumlashtirishlarga to'g'ri kelmaydi. Bu shuni anglatadiki, dunyoning bir qismida samarali bo'lgan amaliyot boshqa joylarda har doim ham yaxshi natija bermasligi mumkin. Buning asosiy sababi shundaki, har qanday institutsional modelning samarali ishlashi bevosita davlat boshqaruvchilari nazoratidan tashqari bo'lgan ijtimoiy tuzilma, madaniyat va boshqa omillarga bog'liq. Shu bilan bir qatorda, olim 11-sentabr voqealarini ham davlat funksiyalari bilan bog'lar ekan, bu voqealardan keyin Amerika davlatining tashqi mudofaa funksiyasini notog'ri maqsadlarga yo'naltirganligini buning oqibatida esa, Yaqin

Sharqdagi vaziyat tubdan o'zgarganligini tanqidiy baholaydi.

Professor Fukuyamaning davlat funksiyalarining zamonaviy tasnifida qilgan eng ajoyib ishlaridan biri bu davlat funksiyalarini tasniflashda kvadrant tizimining mukammal qurilishi va undan davlatchilikning ikki o'lchovi o'rtasidagi munosabatni ko'rsatish uchun samarali foydalanishidir. Bu o'lchovlar davlat ko'lami va uning kuchi.

Demak, davlat funksiyalari qanchalik ixcham va davlat uchun ortiqcha yuk bo'lmaydigan qilib tasniflansa, bu davlatning keying rivoji uchun muvaffaqiyat olib keladigan jarayon hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, zamonaviy usulda tasniflashda ham hamma uchun unikal bo'lgan yechimni topish ham imkonsiz. Buning sabablari haqida yuqorida fikr bildirib o'tdik. Jumladan, davlat funksiyalarini ixchamlashtirishda tarixiy tajribani va davlatning etnik-madaniy hayot tarzini hisobga olgan holda, yondashib uning ayrim funksiyalarini xususiy sektorga o'tkazish ham mumkin. Bu esa, har bir davlat o'zining tarixiy tajribasi, madaniyati va an'analariga mos holda ish olib borishi shart ekanligini anglatadi. Masalan, ba'zi mamlakatlarda sog'liqni saqlash yoki ta'lim sohalarini qisman xususiy sektorga topshirish samarali bo'ladi, boshqa mamlakatlarda esa bu model ishlamasligi mumkin. Shuning uchun ham xususiy sektorga topshiriladigan funksiyalarni diqqat bilan tanlash kerak. Infratuzilma, kommunal xizmatlar, telekommunikatsiya kabi sohalaridagi funksiyalarni xususiy sektorga o'tkazilsa, faoliyati ham samaraliroq bo'lishi mumkin. Lekin sud-huquq tizimi, tashqi siyosat, milliy xavfsizlik kabi muhim sohalarida davlat nazorati saqlanib qolishi zarur. Biroq, xususiy sektorga o'tkazilgan davlat funksiyalarida ham davlatning nazoratini saqlab qolish kerak. Aks holga, narxlarning sun'iy o'sishi va xizmatlarning sifati yomonlashuvi holati kuzatilishi hech gap emas. Shuni ham hisobga olish kerakki, davlat funksiyalarini optimallashtirish bu darrov sodir bo'ladigan jarayon emas.

Shunday qilib, Yaponiyalik olim F.Fukuyama davlat funksiyalarini tasniflashda yangi bosqichni amalga oshirgan. U tasniflashda yangicha matritsa

ishlab chiqib, davlatlar uchun turlicha mezonlarni asos qilib oladi. Uning asosida davlatlar uchun davlat funksiyalari qanday ahamiyatga ega ekanligiga ko'ra ularni bo'lib chiqadi. Bu funksiyalarni aniqlashda albatta, xalqaro standartlarni ham hisobga olgan. Olimning fikricha, davlat funksiyalarini uch guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq. Minimal funksiyalar, o'rtacha funksiyalar va funksiyalar.

Minimal funksiyalarga: Mulk huquqi, makroiqtisodiy boshqaruv, mudofaa, kambag'allikni qisqartirish, jamoat salomatligi, huquqiy tartibni ta'minlash kiradi. O'rtacha funksiyalarga: Davlatning tashqi siyosatini amalga oshirish, ta'lim va atrof-muhitni tartibga solish, monopoliyaga qarshi kurashish, ijtimoiy sug'urta, moliyaviy faoliyatni tartibga solish kirs, faol davlat funksiyalariga: sanoat siyosatini amalga oshirish, boyliklarni qayta taqsimlashni misol qilib keltirgan.

Bizning fikrimizcha ham yangicha davlat funksiyalarini tasniflashda klassik usuldan qochish va xalqaro reytingdagi davlatning o'rniga qarab xuddi F.Fukuyama ishlab chiqqandek, davlat funksiyalarini tasniflashni joriy qilishni kiritish kerak. Bunga esa, yuqorida aytganimizdek, ichki va tashqi funksiyalarini birlashtirib yuborish orqali amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Xulosa.

Albatta, bu yondashuvlar ham nisbiy bo'lib dunyoning barcha davlatlari uchun universal ahamiyatga ega mezon sifatida professor F.Fukuyamaning nazariyasini olish ham o'rinli hisoblanmaydi. F.Fukuyama davlat funksiyalarini tasniflashda asosan, xalqaro reytinglarda va indekslarda davlatlarning tutgan o'rniga qarab funksiyalar doirasini kengaytirish yoki uning ko'lamini qisqartirishni taklif qilgan. Dunyo tez o'zgarib borayotgani uchun, davlat o'z vazifalarini doimiy ravishda qayta ko'rib, yangi sharoitlarga moslashtirib borishi kerak. Bunda muvaffaqiyatga erishish uchun xalqning ehtiyojlari, mamlakatning haqiqiy imkoniyatlari va xalqaro tajribalarni uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shu maqsadda ham u davlat funksiyalarini tasniflashning klassik usullari

bilan bir qatorda o'zining uch turdagi funksiyalarga tasniflash nazariyasini ishlab chiqadi. F.Fukuyamaning boshqa qarash vakillaridan farqi ham uning yagicha yondashuvlarga asoslanganligida deb bilish mumkin. Bizningcha, davlat funksiyalarini tasniflashda uning qarashlarini qo'llab tasniflashni ilgari sursak maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. В.Я. Любашиц, А.Ю. Мордовцев, А.Ю. Мамычев. Х_ «Теория государства и права» . — М.: РИОР, 2014
2. Людмила Александровна Морозова Теория государства и права
3. Сайдуллаев Ш. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. Дарслик. —Тошкент: ТДЮУ, 2018
4. Черноголовкин Н.В. Теория функций социалистического государства. М., 1970
5. С.А.Комаров. «Теория государства и права» учебно – методическое пособие Краткий учебник для вузов. Издательская группа НОРМА–ИНФРА.М. Москва, 1999
6. Темнов Е.И. Форма государства //Общая теория права и государства. М., «Юрист», 1994.
7. Комаров С.А., Малько А.В. Теория государства и права. Учебно-методическое пособие./ Краткий учебник для вузов. —М.; НОРМА, 1999.
8. Siddique, Basil. (2010). State Building: Governance and the World Order in the 21st Century, a Book Review.
9. State-building : Governance and world order in the 21st century / Francis Fukuyama.